




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 68927,2 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,4 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 10,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 22,8 % ga hamda tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 11,5 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.

Yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
(2024-yil yanvar-iyun oylari, tumanlar kesmida)

	2024- yil yanvar-iyun (ming.so'm)	2023- yil yanvar-iyung nisbatan % da
Toshkent sh.	22 539,9	106,8
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	17692,7	113,9
Bektemir	85631,0	104,3
Yunusobod	6278,7	103,2
Mirzo Ulug'bek	14224,0	110,0
Mirobod	27752,2	104,6
Shayxontohur	10905,9	105,0
Olmazor	13392,4	103,5
Sergeli	47222,4	105,0
Yakkasaroy	30582,0	104,6
Yashnobod	47798,8	96,8
Yangiheyot	27926,0	99,8
Chilonzor	21785,5	111,3

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega tumanlar Uchtepa 17692,7 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,9 foizga), Chilonzor 21785,5 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,3 foizga) va Mirzo Ulug'bek 14 224,0 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 foizga) Sergeli 47 222,4 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 foizga) bo'lib, past ko'rsatgichga, Shayxontohur 10 905,9 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,0 foizga), Yakkasaroy 30 582,0 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 foizga), Mirobod 27 752,2 ming.so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,6 foizga) hissasiga to'g'ri keladi.



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54 964,2 mlrd. soʻmni va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

Oʻz navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan metallurgiya sanoati 11,7 % ga, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish 6,1 % ga oshganligida, elektr uskunalar ishlab chiqarish 3,4 % ga, kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish 9,9 % ga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmogʻining ulushi 4,2 % ni, oʻrta-yuqori texnologiyali 21,4 % ni, oʻrta-quyi texnologiyali 34,3 % ni, quyi texnologiyali 40,1 % ni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda





Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-iyun oylarida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 9 952,6 mlrd.soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 111,5 % ni tashkil qildi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati 79,8 % ga koʻpaygan, tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga 12,7 % ga oʻsganini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 3 319,2 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 122,8 % ni) tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan mahsulotlari oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 22,8 % ga oʻsgan.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 691,2 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 110,8 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda, 2024-yil yanvar-iyun oylarida suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 % ga oʻsgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish hajmi**
(2024- yil yanvar-iyun oylarida)


	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, foiz hisobida
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	68 927,2	109,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	9 952,6	111,5
Xom neft va tabiiy gaz	9 951,0	112,7
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	144,9	79,8
Tog'-kon sanoatida texnika xizmatlari	54,6	56,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	54 964,2	108,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	7 121,5	102,2
Ichimliklar	5 576,6	103,0
Tamaki mahsulotlari	402,2	260,1
To'qimachilik mahsulotlari	2 493,4	95,3
Kiyimlar	1 181,7	115,2
Charm va charmdan mahsulotlar	93,5	109,9
Yog'och hamda yog'och va po'kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to'qish uchur materiallardan yasalgan buyumlar	430,3	106,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari	1 535,6	121,9
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo'yicha xizmatlar	879,6	101,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	224,0	120,8
Kimyo mahsulotlari	1 749,7	90,1
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	1 403,3	102,3
Rezina va plastmassa buyumlar	2 457,9	106,1
Boshqa nometall mineral buyumlar	2 546,5	115,0
Metallurgiya sanoati	10 358,6	111,7
Mashina va asbob-uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar	1 761,5	87,0
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	894,2	100,1



Elektr uskunalar	5 599,5	96,6
Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	1 172,3	90,1
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	2 883,8	119,6
Boshqa transport vositalari va uskunalar	371,8	95,1
Mebel	412,2	106,7
Boshqa mahsulotlar	1 932,8	164,9
Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar	1 481,6	146,5
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	3 319,2	122,8
Elektr, bug' ta'minoti tizimlari va konditsionerlari ishlab chiqarish va tarqatish	3 063,0	126,7
Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va tarqatish	256,2	71,8
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	691,2	110,8
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	487,2	124,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish	204,0	87,7

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalaridan joriy yilning yanvar-iyun oylarida 31 771,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 46,1 % ni tashkil etdi, shu bilan birga davlat sektorida 15 511,0 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 22,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 53 416,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 77,5 % ni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida
2024 -yil yanvar-iyun oylarida (foiz hisobida)**



Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko'lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida 68 927,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.



Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 111,5 % ni, qayta ishlash sanoati 108,4 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo 122,8 %ni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar 110,8 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan foizda)

2023 -yil yanvar-iyun

2024-yil yanvar-iyun



	Ishlab chiqaradigan sanoat
	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
	Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi
(yirik korxonalar bo'yicha)

	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyungga nisbatan % da
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Neft	ming tn	313,0	92,7
Gaz kondensanti	ming tn	358,1	107,2
Tabiiy gaz	mln. kub.m	15 965,6	97,0
Chaqiq tosh	tonna	136847,0	55,2
Qayta ishlash sanoati			
Yumshoq bug'doy va spelta uni	tonna	31 111,0	49,6
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	tonna	3 826,0	161,3



	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog 'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq	<i>tonna</i>	3 663,5	55,7
Aroq - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	6 648,4	91,3
Konyak spirti - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	71,4	2,0
Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - ming litr 100% spirt	<i>ming litr</i>	390,4	109,7
Uzum vinolari	<i>ming litr</i>	1 860,9	68,4
Pivo	<i>mln. litr</i>	49 698,5	109,7
Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan	<i>mln.dona</i>	1823,3	2,6 m.
Paxtadan yigirilgan ip	<i>tonna</i>	18 486,3	108,4
Tarkibida massasi bo'yicha 85% yoki undan ortiq paxta tolasi bo'lgan, sirt zichligi 200 g/kv.metrдан ko'p bo'lmagan, oqartirilmagan ip gazlamalari	<i>ming kv.m</i>	13,2	5,9
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	<i>tonna</i>	9 163,8	80,3
Gilam va gilamlar	<i>ming kv.m</i>	934,0	-
Paketlar va paketlarni qadoqlash	<i>tonna</i>	1147,7	2,1 m.
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	<i>ming dona</i>	918,2	2,4 m.
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	<i>ming dona</i>	56,0	21,1
Boshqa ish kiyimlari - ming so'm	<i>ming so'm</i>	11 503,0	112,3
Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofirovka qilish uchun qog'oz	<i>tonna</i>	870,0	118,0
Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar	<i>tonna</i>	16 543,6	42 m.
Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiyalar, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarini bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	36 616 450,0	100,8
Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	16 371 287,0	105,8



davomi

	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprosessor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	7 999 860,0	3,3 m.
Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	2 571 060,0	2,8 m.
Yog'lash uchun ishlatiladigan moylar	ming tonna	1,2	58,5
Suyultirilgan propan va butan	ming tonna	250,6	90,8
Texnik oltingugurt	tonna	118 622,0	101,1
Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar	tonna	33,2	63,8
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida	tonna	7 455,1	94,4
Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar	tonna	3 068,4	79,2
Denaturalanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti	ming litr	4 661,0	77,9
Birlamchi formalardagi polipropilen	tonna	6 436,3	111,8
Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalariga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar	tonna	100,3	116,8
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar	tonna	12 858,2	164,7
Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar	tonna	365,6	164,7
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	tonna	157 996,9	75,0
Butilkalar	ming dona	127 982,0	96,2
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqlayin prokatka qilingan, issiqlayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar	tonna	58 373,7	113,3

davomi

	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyungani nisbatan % da
Po'latdan choksiz neft va gaz quvurlari	<i>tonna</i>	13 657,9	89,6
Mis sim	<i>tonna</i>	15 242,2	76,5
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	<i>tonna</i>	863,0	140,2
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar	<i>tonna</i>	2,8	92,7
Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari	<i>tonna</i>	3 442,0	61,7
Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblari	<i>tonna</i>	0,3	5,4
1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar	<i>tonna</i>	3,3	2,4 m.
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagan elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar	<i>tonna</i>	116,5	155,8
Izolyatsiya qilingan o'rash simlari	<i>tonna</i>	1 070,6	102,8
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari	<i>tonna</i>	4 679,9	85,5
Sovutkich va muzlatkichlar -	<i>dona</i>	235 817,0	68,8
Ixtisoslashgan yengil avtomobillar - dona	<i>dona</i>	125210,0	118,6



davomi

	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyunga nisbatan % da
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash			
Elektroyenergiya	<i>mln.kVt soat</i>	1 752,6	90,5
Issiqlik energiyasi	<i>ming Gkal</i>	5 291,8	88,2
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	645 459,0	147,2
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish			
Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	305 109 064,0	184,7
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	182 107 321,0	2,1 m.
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	113 989 044,0	170,7
Plastmass chiqindilar	<i>tonna</i>	751,6	84,7
Xavfsiz metall chiqindilar	<i>tonna</i>	655,5	184,6
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	<i>tonna</i>	27 052,4	133,7
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	<i>tonna</i>	121,3	77,8
Saralangan metall va metall bo'lmagan materiallarni qayta ishlash (qayta tiklash) bo'yicha xizmatlar - ming so'm	<i>ming so'm</i>	887 823,0	-


Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 21,0%), Sergeli tumani (11,6%), Chilonzor tumani (8,7 %), Olmazor tumani (7,9%), Uchtepa (7,7%), Bektemir tumani (7,7 %), Yangihayot tumani (7,2 %), Mirzo Ulug'bek tumani (6,9%), Mirobod (6,2%) hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yakkasaroy tumani (6,0%), Shayhontohur tumani (5,8%), Yunusobod (3,5%) tumanlariga to'g'ri keladi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

(2024- yil yanvar-iyun oylarida)




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 68 927,2 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 22 539,9 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.



Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda (2024- yil yanvar-iyun oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta fizik hajmi indeksi Uchtepa tumani(115,8%), Bektemir tumani (112,7 %), Mirzo Ulug`bek tumani (112,5%), Chilonzor tumani (112,4%), Yakkasaroy (109,3 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-iyun)

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yunusobod tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (67,0 %), Olmazor (63,7 %) Chilonzor (44,6 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Yangihayot (22,8 %) va Yashnobod (18,8 %) tumanlarida kuzatildi.



2024-yil yanvar-iyun oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 68 927,2 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,4 % ni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 30,2 % ni tashkil qildi.

Qoʻshma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foizda
2024- yil yanvar-iyun oylarida







Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,0 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1329 ta korxonalar (jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 12,2 %) Olmazor tumaniga, 1 244 ta korxonalar (11,4 %) Chilonzor tumaniga, 1 112 ta korxonalar (10,2 %) Uchtepa tumaniga hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2024- yil 1-iyul holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2024- yil yanvar-iyun oylarida)






2024-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida 749 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 12,6 % Olmazor, 10,9 % Yashnobod, 10,1 % Mirzo Ulug'bek, 10,1% Sergeli tumanlari yuqori ulushga ega.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari
(2024- yil yanvar-iyun oylarida)

	Loyihalar soni, birlikda	Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari	Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda
Jami:	294	9 736 000,0	140,7	612
<i>shundan;</i>				
Uchtepa	12	92287,0	454	25
Bektemir	42	389803,0	6058	24
Yunusobod	15	25478,0	75	11
Mirzo Ulug'bek	19	282856,0	271	63
Mirobod	19	21079,0	63	3
Shayxontohur	17	1598397,0	5824	3
Olmazor	36	173301,0	1562	68
Sergeli	13	2834709,0	973	69
Yakkasaroy	20	84544,0	62	4
Yashnobod	54	849760,0	29394	225
Yangihayot	26	1964799,0	34041	33
Chilonzor	21	1418997,0	61901	84



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2024- yil yanvar-iyun oylarida



Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).